

YO‘RIQNOMA–VARAQA
biologik faol oziq-ovqat qo‘shimchasi
«NEOFLOREN» ni qo‘llash bo‘yicha

BFQ dori vositasi hisoblanmaydi.

Tarkibi:

1 kapsula tarkibida:

Saccharomyces boulardii — 250 mg/kaps.; kapsula (jelatin, bo‘yoqlar: titan dioksidi, brilliant ko‘k FCF, tartrazin), inulin, magniy stearati (yopishib qolishga qarshi modda), bifidobakteriyalar: Bifidobacterium infantis, Bifidobacterium bifidum, Bifidobacterium longum; laktobakteriyalar: Lactobacillus acidophilus, Lactobacillus casei.

Qo‘llanish sohasi:

Oshqozon-ichak trakti funksiyalari va ichak mikroflorasini fiziologik me‘yorlarda saqlab turish uchun, probiotik mikroorganizmlarning (Saccharomyces boulardii, laktobakteriyalar va bifidobakteriyalar) qo‘shimcha manbai sifatida tavsiya etiladi. Tarkibida prebiotik — inulin mavjud.

- Xamirturush zamburug‘lari (saxaromitsetlar) zararlangan ichak mikroflorasini (“disbakterioz”) tiklashga yordam beradi.
- Sut kislotali bakteriyalar ichak mikroflorasi va oshqozon-ichak faoliyatini tiklashga ko‘maklashadi.
- Prebiotik inulin ovqat hazm qilish yo‘lidagi foydali bakteriyalarning o‘sishi va faollashuviga yordam beradi.

Qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar:

Ovqat vaqtida ichga qabul qilinadi.

3 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarga — kuniga 1 kapsuladan. Qabul qilish muddati — 1 oy.

Qo‘llashdan oldin shifokor bilan maslahatlashish tavsiya etiladi. Agar kapsulani yutish qiyin bo‘lsa, kapsula ichidagini suv, yogurt yoki sutda eritib ichish mumkin. Antibiotiklar buyurilgan bo‘lsa, ularni mazkur mahsulot bilan bir vaqtda emas, balki bir necha soat tanaffus bilan qabul qilish kerak.

Qarshi ko‘rsatmalar: Mahsulot tarkibiy qismlariga individual o‘zlashtira olmaslik, homiladorlik, emizish davri.

Chiqarilish shakli:

400 mg li kapsulalar. Blisterda 10 kapsula.

Qadoqda 30 kapsula.

Saqlash sharoiti:

25 °C dan yuqori bo‘lmagan haroratda va nisbiy namlik 75 % dan oshmagan sharoitda saqlansin.

Yaroqlilik muddati:

2 yil.

Ishlab chiqaruvchi:

ODO «AMATEG»

222520, Belarus Respublikasi, Minsk viloyati, Borisov shahri, Gertsena ko‘chasi, 15-uy
Tel.: (+375-177) 72-18-64 www.amateg.by e-mail: info@amateg.by